


6F.7  
A 74

O.Abduraxmonov

# **QISHLOQ XO'JALIGIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR**



**O'quv qo'llanma**

20  
224445 - 227794

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLİKASI QISHLOQ

XO'JALIGI VAZIRLIGI


ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI

**ABDURAXMONOV ODILJON**

**QISHLOQ XO'JALIDA  
AXBOROT-KOMMUNIKATSION  
TEXNOLOGIYALAR**

**O'quv qo'llanma**

227775



**"Step by step print" nashriyoti**  
ANDIJON – 2024

UO'K: 631.4(075)

KBK:32.973

A - 74

**Abduraxmonov O. Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar [Matn]: o'quv qo'llanma / Abduraxmonov O. "Step by step print" nashriyoti. – Andijon 2024 y. – 115 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanma institutting 60811300- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha), 60811700- Ipakchilik va tutchilik, 60811800- Mevachilik va uzumchilik, 60811900- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, 60812000- Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish, 60820200- Manzarali bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning "Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar" fanining nazariy, pedagogik usullar va texnologik asoslarni, sohaga oid aniq masalalarni yechishda, axborot texnologiyalarini qo'llashning amaliy yutuqlari va uslublari bilan chuquq har tomonlama tanishtirishda qo'l keladi.

Shuningdek, qo'llanma texnik va dasturiy vositalar bilan ishlashning umumiy tartiblarini o'rgatish hamda ularni amalda tadbiq etish ko'nikmalarini hosil qilishdan va keyinchalik o'z kasbiy faoliyatlarida foydalana olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan. Ushbu o'quv qo'llanmada fanning barcha mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha yo'rinqomalar hamda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar berilgan. Mazkur o'quv qo'llanma fanning o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

#### Taqrizchilar:

**H.N.Zaynidinov** – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Sun'iy intellect" kafedrasi mudiri, t.f.d., professor

**N.Karimov** – Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Axborot texnologiyalari va matematika" dotsenti, t.f.n.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiya vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat berilgan.*

ISBN: 978-9910-769-69-6

1244



© Abduraxmonov O. Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar O'quv qo'llanma  
© "Step by step print" nashriyoti. – Andijon 2024 y.

## **KIRISH**

**“Mushohadasiz mutolaa - puch!**

**Mutolaasiz mushohada - yovuz kuch!”**

**Konfutsiy**

Xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yuqori salohiyatga va malakaga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda “Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanining o'rni beqiyosdir. Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishda, jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etishda hamda ulardan foydalanishda, fuqarolarning axborotga nisbatan ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirishda, jahon axborot hamjamiyatiga kirishda, milliy axborot resurslaridan bahramand bo'lish imkoniyatini kengaytirishda hamda yuqori salohiyatga va malakaga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda “Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini o'qtish katta ahamiyatga egadir. Agrar soha ishlab chiqarish jarayonining samarali rivojlanishi uchun xo'jalik yuritishning eng yuqori va samarali boshqarish tizimi talab etiladi. Axborot texnologiyalari qishloq xo'jaligi jarayonlarini rejorashtirishga, bashoratlashga, tahlil qilishga va modellashtirishga bog'liq katta miqdordagi masalalarini yechishda muhim vosita bo'lmoqda.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish bilan, asosan, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi sanoatlashgan davlatlar shug'ullanayotgan bo'lsa, ularning iste'molchilari esa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar samaradorligi indeksi bo'yicha esa dunyoda Shvetsiya, Singapur, Koreya, Shvetsariya, AQSh, Daniya

va Kanada mamlakatlari ilg'orlik qilishmoqda. Juhon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning samaradorlik indeksi bozor muhiti, uni tartibga solish muhiti, infratuzilma, aholi tayyorgarligi, biznesning tayyorgarligi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan aholi, biznes va davlatning foydalanish darajalari bilan ifodalanadi. Dunyo hududlari bo'yicha axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi ko'rsatkichlariga ko'ra, Shimoliy Amerika davlatlarining boshqaruva va xo'jalik subyektlari hamda uy xo'jaliklarida ulardan foydalanish bo'yicha ancha yuqori. Ularda keng polosali Internet bilan uy xo'jaliklarining 85 % i, mobil aloqa bilan aholining 72 % i, uy xo'jaliklarining 93% i esa shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivojlanishi va undan keng foydalanish jahon taraqqiyotining oxirgi yillardagi global tendensiyalaridan hisoblanmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotida kuchayib boradi va transmilliy korporatsiyalarning mamlakatning mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlari faoliyatidagi roli ortib boradi. Iqtisodiyotning raqamli segmenti mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatida ro'y beragan sifat o'zgarishlari tufayli dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi. Yangi texnologiyalar va platformalar jismoniy shaxslar va korxonalar menejmentiga tobora katta ko'lamda o'zarlo aloqlarda tranzaksiya harajatlarini qisqartirish hamda davlat tuzilmalari va xo'jalik yurituvchi obyektlar bilan mustahkam aloqalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Shu sababli iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak, – deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisiga Murojaatnomasida. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Natijada YalMni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan, xususan, qishloq xo'jaligidagi ko'p turdag'i ishlab chiqarish sohalarida raqamlashtirilgan axborot tizimlari yaratilmoqda, shu asosda

talabalar fanni o'zlashtirish davomida raqamlashtirilgan axborot tizimlarida ishlash ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar. Olingan bilimlari asosida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalaridagi axborot tizimlarini boshqarish va ulardan qarorlar qabul qilishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

“Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanini o'rganish qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlariga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va qayta ishlangan ma'lumotlar asosida soha bo'yicha eng samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlarida talaba bevosita axborot texnologiyalari bo'yicha nazariy bilimlarini aniq mashqlar bajarish asosida mustahkamlab boradi.

Ushbu “Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanidan tayyorlangan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanmada axborot, axborotlashgan jamiyat, zamonaviy texnik va dasturiy vositalari bilan ishlash, Windows operatsion tizimida ishlash, MS Word 2019 matn muharririda sifatli hujjat tayyorlash, elektron jadvallar bilan ishlash (MS Excel 2019), MS Access 2019 dasturida ma'lumotlar bazasini yaratish, axborot tizimlari bilan ishlash, internet xizmatlari - axborot qidiruv tizimlari bilan ishlash, bulutli texnologiyalar, elektron hukumat, axborot xavfsizligi, algoritmlash va dasturlash asoslari, geografik axborot tizimlari, ARMA dasturida ishlash va amaliy topshiriqlar hamda innovatsion pedagogik texnologiya usullari keltirilgan. O'quv qo'llanma bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, fanning o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Ushbu o'quv qo'llanmada fanning barcha mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha yo'rinqomalar hamda foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar berilgan.

## **1-BOB. KOMPYUTERLARNING TEXNIK VA DASTURIY TA'MINOTI**

### **1.1-§. Zamonaviy texnik va dasturiy vositalar bilan tanishtirish**

#### **Umumiy ko'rsatmalar**

**Kompyuter tushunchasi.** Hisoblarni bajarish, shu jumladan elektron shakldagi axborotni oldindan belgilangan algoritm bo'yicha qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va ishlov berish uchun mo'ljallangan elektron mashina. Kompyuter so'zi ingliz tilidagi "to computer", "computer", so'zlarining hosilasi bo'lib, ular "hisoblash", "hisoblagich" deb tarjima qilinadi. Dastlab ingliz tilida bu so'z, mexanik qurilmani jalb qilib yoki uning ko'magisiz arifmetik hisoblarni bajaradigan insonni anglatgan. Keyinchalik uning ma'nosi mashinalarning o'ziga ko'chirildi, biroq, zamonaviy kompyuterlar matematika bilan bevosita bog'liq bo'limgan ko'plab masalalarni ham bajaradilar. XX asrning 90-yillardan boshlab, kompyuter atamasi elektron hisoblash mashinalari (EHM) atamasini amalda siqib chiqardi. Kompyuter quyidagi asosiy bloklardan iborat:

- asosiy xotira;
- protsessor;
- tashqi qurilmalar.

Kompyuter - bu turli hajmdagi, har xil ko'rinishdagi axborotlarni tezlik bilan ishlab berishni ta'minlovchi universal avtomatik qurilmadir.

#### **Noutbuk va netbuklar.**

Noutbuk - mobil ixcham shaxsiy kompyuter. Uning asosiy qismi va monitori birlashgan holda bo'ladi. Bunday kompyuterlarning ko'pchiligi deyarli standart klaviaturaga, kompyuter grafikasi vositalariga ega. Bunday kompyuterlar unchalik katta bo'limgan qattiq disklar yoki optik disklar bilan ishlaydi.

Netbuk - Internetdan foydalanish va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan kichik kompyuterdir. Netbuklar ixcham o'lchamlari, kichik vazni, kam energiya iste'moli va nisbatan arzon narxlari bilan ajralib turadi.

Netbuklar Noutbuklarga nisbatan loyengil, ixcham va foydalanishda juda qulaydir. Netbuklarda Noutbuklarga nisbatan ayrim tashqi qurilmalar mavjud bo‘lmaydi, masalan, kompakt disklarni o‘qish qurilmasi.




### Sichqoncha, klaviatura, monitor va ularning vazifalari.

Sichqoncha (ingl. mouse – *sichqon*) ma’lumot kiritish qurilmasi bo‘lib, biror tekislik bo‘ylab harakatlantirilganda tagidagi lazer nuri harakat haqidagi ma’lumotni kompyuterga uzatadi va ekrandagi ko‘rsatkich (kursor) mos yo‘nalishlarda harakatlanadi. Sichqonchaning tugmalari yordamida kompyuterga biror buyruq berish, undagi dasturlar va jarayonlarni ishga tushirish hamda hujjatlarni ochish mumkin.



Klaviatura (ingl. keyboard) muayyan qurilmani boshqarish yoki axborotni kiritish uchun mo‘ljallangan tugmalar (klavishalar) to‘plamidan iborat bo‘lgan qurilma yoki ekrandagi tasvir. Texnik va mexanik qurilmalarni (kalkulyator, kompyuter, telefon, kassa apparati) boshqarish uchun alifbo-raqamli klaviaturalar qo‘llaniladi. Klaviaturalardagi har bir tugmaga bir yoki bir necha belgi birkirtiriladi. Tugma birikmalari klaviaturadan bajariladigan amallarning sonini ko‘paytirishga imkon beradi.



Monitor kompyuterning ish jarayonida vujudga keladigan axborotlarni ekranda yoritishga xizmat qiladigan qurilma. Monitor grafik yoki matn holatida ishlashi mumkin. Matn holatida belgi

*o'rirlari* deyiluvchi alohida qismlarga, grafik holatida esa *piksel* nomli nuqtalarga bo'linadi. Monitordagi piksellarning umumiy miqdori hamda ranglar soni monitoring *imkon darajasini* (kengligini) belgilaydi.



**Videoproyektor va ekran.** Proyektorlar va ekranlar ma'lumotlarni yirik olchamda tasvirlash uchun ishlataladigan qurilmalardir. Unda tasvir o'lchami ekranda yirik holatda aks ettiriladi. Bu qurilmalar kompyuter bilan birqalikda foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq katta auditoriyalarda va zallarda hamda turli majlislarda prezintatsiya va videoroliklarni namoyish qilish uchun ishlataladi.

Videoproyektor kompyuter va shunga o'xshash namoyish vositalarining alohida qo'shimcha monitori hisoblanib, tasvirlarni yirik hajmda tasvirlash uchun mo'ljallangan.

Ecran - videoproyektor orqali yoritilayotgan materiallarni o'zida tasvirlovchi element.



### **Printer va skaner qurilmalari va ularning ahamiyati.**

Printer (ingl. Printer – *chop qiluvchi*) ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish qurilmasi. Printerlarning uch xil turi mavjud: bosma, purkovchi va lazerli. Bosma printer ignalar yordamida, purkovchisi naycha yordamida, lazerli printer esa maxsus baraban yordamida chop qiladi. Purkovchi hamda lazerli printerlar yordamida rangli ma'lumotlarni chop etish mumkin.

Skaner (ingl. skaner - o'qib oluvchi) qog'ozdag'i ma'lumotlarni surli lampa yordamida rasmiyi ko'rinishda kompyuter xotirasiga o'qib uzatuvchi qurilma. Skanerlarning asosan ikki turi mavjud: stol usti skanerlari va qo'l skanerlari. Skanerlar kompyuter xotirasiga ma

‘lumotlarni tezkor kiritish imkonи beradi va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



### Axborotlarni saqlovchi va tashuvchi vositalari: fleshka, CD va DVD disklar.

Flesh disklar juda katta hajmdagi axborotni o‘z ichiga sig‘dira oladigan yarim o‘tkazgichli elementlardan qurilgan xotira. Hozirgi kunda flesh xotiralarning hajmi 32 Gb gacha bo‘lgan axborotni o‘ziga sig‘dira oladi. Flesh xotiralar o‘lcham jihatidan juda kichik bo‘lib foydalanish uchun juda qulash. Ma ‘lumot yozish tezligi 6700 kbayt/sek gacha etadi. Ma ‘lumot o‘qish tezligi esa 18000 kbayt/sek gacha boradi. Flesh xotiralar hozirgi kunda eng asosiy axborot tashuvchilardan hisoblanadi.



CD disklar – bu kompakt disk so‘zlarining bosh harflaridan olingan nomli disklar bo‘lib, axborotlarni saqlash uchun optik yuzadan iborat, yumaloq disk ko‘rinishidagi axborot tashuvchi hisoblanadi. Kompakt disklar 700 Mbayt hajmga ega bo‘lib, unga ma ‘lumot disk o‘quvchi qurilmaning lazer nuri yordamida yoziladi va o‘qiladi.



DVD disklar – bu dijital video disk so‘zlarining bosh harfidan iborat nomli disklar hisoblanadi. Bu disklar 4.5 Gbayt hajmga ega

bo'lib, CD disklarga nisbatan 7 barobar ko'p axborot sig'dirishi mumkin.


Har ikkala turdag'i disklar ham optik rejimda ma 'lumotlarni yozish, o'qish va saqlash xususiyatiga ega bo'lib, ixtiyoriy turdag'i ma 'lumotlarni tashish imkoniyatiga ega.




Hozirgi kunda ushbu disklarning yangi avlodlari ishlab chiqarilmoqda, ular CD-RW va DVD-RW ko'rinishida belgilanadi. Bunday turdag'i disklarga axborotlarni yozish, o'chirish va qayta yozish mumkin.

**Kompyutering salbiy va ijobjiy tomonlari.** Kompyuterdan foydalanish bo'yicha ma 'lum me 'yorlar, qoidalar va talablar mavjud. Bunga kompyutering joylashishi, xonaning yorug'ligi, havo almashishiga bo'lgan talablar va texnika xavfsizligi qoidalari kiradi. Kompyuter ishlash vaqtida o'zidan elektromagnit to'lqinlarni tarqatadi, bu esa o'z navbatida kompyuterdan uzoq vaqt foydalanilganda inson sog'lig'iga zarar etkazadi. Kompyutering noto'g'ri joylashishi foydalanuvchining tanasi tuzilishiga, kompyuter joylashgan xonaning yorug'lik darajasi esa kompyutering foydalanuvchi ko'rish qobiliyatiga ta 'sirini belgilaydi. Maktab yoshigacha bo'lgan foydalanuvchi kompyuter bilan 15-20 minut ishlashi mumkin. Maktab yoshidagi 1-2 soat oralig'ida kompyuterde ishlashi mumkin. Kattalar esa bir ish kuni davomida 3-4 soat atrofida ishlashi mumkin.

## *Shaxsiy kompyuter tarkibi. Klaster usuli*



**“Kompyuterni tez ishdan chiqishini oldini olish” muammosini yechish uchun grafik tashkil etuvchilar “Nima uchun?” sxemasi**



## **Amaliy mashg'ulot topshiriqlari.**


1. Kompyuter tushunchasi va uning vazifasi; Klaster metodini qo'llang
2. Noutbuk va netbuklar; T-jadvalni qo'llang
3. Asosiy qurilmalari va ularning vazifalari ; Venn-diogrammasi metodini qo'llang
4. Qo'shimcha qurilmalari va ularning vazifalarin; Nima uchun metodi
5. Disklar bilan ishlash va ulardan foydalanish; Baliq skeleti metodi
6. Sichqoncha, klaviatura, monitor va ularning vazifalari; Klaster metodini qo'llang
7. Videoproektor va ekran; BBB metodini qo'llang
8. Printer va skaner qurilmalari va ularning ahamiyati; Klaster metodini qo'llang
9. Axborotlarni saqlovchi va tashuvchi vositalar: fleshka, CD va DVD disklar; T-jadvalni qo'llang
10. Kompyuterda multimedia (audio, video) ma'lumotlarini namoyish etish; Insert metodini qo'llang
11. Kompyuterning salbiy va ijobiy tomonlari. Blits-so'rov metodi

### **1.2-§.Windows OTda ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish.**

#### **Umumiyo'krsatmalar**




Papka va fayllar ustida bajariladigan asosiy amallar quyidagilar: копировать, вставить, вырезать, удалить. Har birini alohida ko'rib chiqamiz. "Kompyuter" papkasini "Пуск" tugmachasi yordamida oching.



Ixtiyoriy diskni oching (sichqonchaning chap tomonini 2 marta cherting). Diskda matnli fayl va papka yaratamiz. Buning uchun "D"diskdan foylalanamiz. Papka yaratamiz. Buning uchun создать папку "ПК для всех" deb nomlaymiz.

Bu papkalarning birida oddiy matnli fayl yarating. Buning uchun papkaning bo'sh joyida sichqonchaning o'ng tomonini bosib, hosil bo'lgan menyudan "Создать" buyrug'ini so'ngra "Текстовый документ" buyrug'ini bosing.

Matnli fayl bilan birlashtirish uchun "ПК для всех".papkasi hosil bo'lishi kerak. Bu papkalarning birida matnli hujjat va papka mavjud.




Bu fayllar ustida bajariladigan amallarni o'rganish uchun etarli. Bu amalni papka yoki faylda sichqonchaning o'ng tugmasini bosish amali orqali yoki klaviatura tugmachalari orqali bajarish mumkin.

Fayl yoki papkadan nusxa olish (копировать)

Nusxa olish (**Копирование**) – bu papka yoki fayldan bir xil o'sha nom yoki aynan bir xil ma 'lumotlar bilan nusxa ko'chirish jarayonidir. Nusxa olish ma 'lumotlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish amalidir, bunda ma 'lumotlar har ikki joyda saqlanadi. Siz ma 'lumotlarni kompyuterdan fleyshkaga olib, boshqa kompyuterga olib o'tishingiz mumkin, bunda ma 'lumotlar sizning kompyuteringizdan yo'qolib ketmaydi.

Fayldan nusxa olish jarayonini ko'rib chiqamiz.

Matnli hujjat va papka joylashgan papkani oching. Matnli ma ‘lumot ustida sichqonchaning o‘ng tugmasini bosing va ochilgan menyular qatoridan “Копировать” buyrug‘ini bosing. Bu buyruqlar qatorida **«вырезать»**, **«вставить»**, **«удалить»** buyruqlari borligiga e‘tibor bering.



Nusxalashdan keyin menu yo‘qoladi, matnli fayl almashish bufer(bufer obmen)iga ko‘chiriladi. Almashish buferi (буфер обмена) копироват, вставит, вырезат buyruqlari bajarilgan vaqtida barcha ma ‘lumotlar ko‘chiriladigan joy. Endi fayl almashish buferidan papkaga joylashtirish kerak.

Papka yoki fayl qanday joylashtiriladi. (вставить)

**Joylashtirish(Вставка)** – Faylni papka, disk, direktoriyaga almashish buferidan ko‘chirish jarayoni

Siz fayldan nusxa olgan paytda uning nusxasi almashish buferiga ko‘chiriladi. Keyin uni buferdan papkaga joylashtirish kerak. Bu amalni вставка bajaradi. Boshqa papkani oching(biz 2 ta papka yaratganmiz, biri bo‘sh, biri fayl va papka joylashtirilgan.). Bo‘sh joyda sichqonchaning o‘ng tomonini bosib, menyular qatoridan “Вставить” buyrug‘ini bosing.

Siz ko‘chirgan fayl ushbu papkada joylashadi.

Papkalaridan nusxa olish fayllardan nusxa olish amali bilan bir xil. Endi papkadan nusxa olib ko‘ring.

Ma ‘lumotlar qanday o‘chiriladi. Fayl yoki papka ustida sichqonchaning o‘ng tomonini bosib menyudan “Удалить” buyrug‘ini bosing.

Fayl yoki papka qanday qirqib olinadi. (**Qirqib olish**) **Вырезать** - fayl yoki papkani bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish. Nusxalashdan farqli ravishda qirqib olingan fayl yoki papka **birinchি** joydan to'liq o'chirilib boshqa joyga qo'iladi.

Endi ma 'lumotlarni qirqib (вырезать) olamiz. Ma 'lumotlar joylashgan papkani ochamiz. Matnli fayl ustida sichqonchaning o'ng tomonini bosib, Вырезать buyrug'ini bosamiz. Fayl nusxasi almashish buferiga olinadi.

Ikkinci bo'sh papkaga o'tib sichqonchaning o'ng tomonini bosib, menyular qatoridan "Вставить" buyrug'ini bosamiz.

**Bu amallarning klaviatura orqali bajarilishi quyidagicha bo'ladi.**

**Ctrl + X, yoki Shift +Delete** - Tanlab olingan matn kismi nusxasini xotiraga ko'chirib (qirqib) olish.

**Ctrl + C, yoki Ctrl + Insert, yoki Ctrl + Num** - Tanlab olingan matn qismi nusxasini xotiraga olish

**Ctrl + V, yoki Shift + Insert, yoki Shift+Num** - Xotirada joylashgan matn qismini chiqarib kursov turgan joyiga qo'yish

#### **Topshiriqlar:**

1. Мой компьютер papkasida ishchi diskni oching. **Файл – Создать -Папка** menyusi orqali Hujjatlar papkasini yarating.

2. Kontekst menu orqali unda Matnlar va Tasvir papkalarini yarating.

3. Matnlar papkasida ikkita papka yarating: Buyruqlar va Sharhnomalar deb nomlang.

4. SHartnomalar papkasida Sharhnomalar nomli matnli fayl yarating: **Файл – Создать –Текстовый документ**.

5. Hujjat belgisiga ikki marta bosib Bloknot ilovasida ushbu hujjatni oching va sana, familiya va guruh nomerini kriting.

6. Faylni saqlang (**Файл-Сохранить**), Bloknot dasturini yoping (**Файл -Выход**).

7. Uskunalar paneli yordamida bitta papkadan ikkinchisiga o'ting:

8. Вверх tugmasi yordamida Matnlar papkasiga o'ting. Papka oynasi ko'rinishini Вид tugmasi yordamida jadval ko'rinishiga o'zgartiring.

9. Shartnomalar papkasiga qayting.
  10. Sichqoncha kursorini "Мои документы" papkasi ustiga olib kelib chap tugmasini ikki marta bosing.
  11. Agar oyna ekranga to'liq bo'lib ochilsa, uni sarlayha qatorining o'ng tomonida joylashgan tugmasini bosib oynani kichraytiring.
  12. "Мой компьютер", "Корзина", "Сетевое окружение" papkalarini ham shu tarzda oching.
  13. Oynalarning o'lchamlarini yanada kichraytirish uchun sichqoncha kursorini oynaning chegarasiga olib boring. Sichqoncha kursorining ko'rinishi ↔ ikki tomonlama strelka holatiga kelganda sichqonchaning chap tugmasini bosib turgan holda chap yoki o'ng tomonga harakatlantiring. Kerakli o'lchamni olganingizdan keyin sichqoncha tugmasini qo'yib yuboring.
- 2-topshiriq**
1. C:\ Fan papkasini, uning ichida Axborot - komunikasion texnologiyalari va Algoritm papkalarini yarating;
  2. Axborot komunikasion texnologiyalari va Algoritm papkalarini "Мои документы" ga nusxalang;
  3. Axborot - komunikasion texnologiyalari va Algoritim papkalarini ajrating va ularni Корзинага jo'nating. O'chirilgan papkalarni tiklang;
  4. Мой компьютер dasturi menyusini aniqlang;
  5. Проводник dasturini oching va menyusini aniqlang;

### 3-topshiriq.

1. C:\ diskda Til papkasini yarating. **Мои документы** ichida O'zbek papkasini va uning ichida Kitob papkasini yarating. Siljитish orqali esa O'zbek papkasini Til papkasiga ko'chiring;
2. "Til" papkasini "Корзина" ga jo'nating va yana tiklang. So'ng yana "Корзина" ga jo'nating;
3. Проводник dasturi orqali 1- topshiriqni bajaring.

### 4-topshiriq

1. Oyna o'lchovlarini o'zgartirish, Ishchi stolda obektlar guruhini ajratish jarayonini yozing.
2. Talaba nomi bilan papka yarating, uning ichida Tasvir va Muloqot papkalarini yarating.

3. D diskda **Amaliyot** papkasini yaratin g va unga **Tasvir va Muloqot** papkalarini ko'chiring. Ajratishning usullaridan foydalanib, ko'chirilgan papkalarni ajrating. Almashish buferini qo'llab, **Tasvir** va **Muloqot** papkalarini **Мои документы** papkasiga joylashtiring va teskarisini ham amalga oshiring. Almashish buferi bilan ishslash uchun kontekst menyusidan va klavishlar majmuasidan foydalaning.

4. **Tasvir** va **Muloqot** papkalarini ajrating va ularni "**Корзина**" ga jo'nating. O'chirilgan papkalarni tiklang. Tiklangan papkalarni "**Корзина**" ga joylashtirmsandan turib, yana o'chiring.

5. "**Проводник**"ning o'ng panelida belgilari ko'rinishini o'zgartiring: **Крупные**, **Мелкие**, **Таблица**, **Список**. Belgilarni nomi, o'lchovi, turi, yaratilish kuni va vaqt bo'yicha saralang.

#### 5-topshiriq

1. D diskda **Amaliyot** papkasini yarating. **Мои документы** papkasida **Hisob** papkasini va uning ichida Jadval papkasini yarating, siljitim orqali esa **Hisob** papkasini **Amaliyot** papkasiga ko'chiring.

2. **Amaliyot** papkasini "**Корзина**" ga jo'nating. **Проводник** dasturining ikkinchi oyenasini oching va ikkala oynaning ham faqat o'ng panelidan foydalaniib birinchi, ikkinchi topshiriqlarni bajaring.

3. Windowsning izlash sistemasidan foydalanib, **vc.exe** va **for.exe** fayllarini toping. Topilgan fayllara yo'lini hisobotga yozing. Hajmi 20 kb dan ko'p, keyingi kunlarda ochib ko'rilgan (D:) diskdagi barcha fayllarni toping. Hisobotga har bir kategoriya tegishli bo'lgan birinchi 5 ta faylni yozing.

4. (D:) diskda vaqtincha papka yarating va unga rasm, matn va bajariluvchi fayllardan iborat bo'lgan fayllarni nusxalang

**“Windows operatsion tizimi afzalliklari va kamchiliklari” mavzusida**  
**T-jadval**

Afzalliklari	Kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kompyuter yoqilishi bilan ishga tushadi</li> <li>➤ Ma'lumotlarni topish tezligi</li> <li>➤ Istalgan turdag'i grafik interfeys bilan ishlay oladi</li> <li>➤ Kerakli dasturlarni kompyuterga sozlay oladi</li> <li>➤ Disklar bilan ishlay olishi</li> <li>➤ Amaliy dasturlar bilan hamohang ishlay oladi</li> <li>➤ operatsion tizim fayllarni ko'chirish yoki bosmaga chiqarish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kompyuter yoqilishi bilan qurilmalar va dasturlar ishini tekshiruvdan o'tkazib keyin ishlaydi</li> <li>➤ Ma'lumotlarni qidiruvga berib topadi</li> <li>➤ Ma'lumotlarni saralanmagani igi</li> <li>➤ Disklar bilan ishlashda maxsus dasturlarga murojaat qilinadi</li> <li>➤ Amaliy dasturlarga kirishda alohida – alohida murojaat qilinadi</li> </ul>

2. Operatsion dasturi organ b-topshirishni bajaring.

3. Tipeksizlik dasturi organ b-topshirishni bajaring.

4. Toppishda:

- Osma o'tebayvueri o'zgartirish - "Sizni shaxs shaxs" o'zgartirish yozing.
- Eksport nomi bilan papka yaratib operatsion dasturi organini yozing.

## **2-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MS OFFICCE AMALIY DASTURLARINI TADBIQI**

### **2.1-§.MS Word dasturi yordamida qishloq xo‘jaligiga oid normativ hujjatlarni tayyorlash.**

#### **Umumiy ma‘lumotlar**

Tarixdan bizga ma‘lumki, axborotlarni saqlashning eng sodda va qadimiy usullaridan biri bu – yozuv hisoblangan. Qadimiy odamlar o‘zlarini istiqomat qiladigan joylar devorlarigagi rasm va yozuvlar buning yaqqol misolidir. Yozuv vositalari asrlar davomida takomillashib bordi. Avval turli qushlar patlaridan foydalaniylgan bo‘lsa, keyinchalik qalam va hozirgi kundagi ruchkalardan keng foydalanish mumkin. Turli mato va boshqa narsalarga yoziladigan yozuvlar ham qog‘ozlarga ko‘chirila boshlandi.

Hozirgi kunga kelib kompyuterlar matn yozish texnologiyasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Matnlarni yozish, saqlash, qayta ishlash, qog‘ozga chop etish kabi ishlarni bajarishga mo‘ljallangan ko‘plab dasturlar yaratildi. Ushbu dasturlardan biri – **Microsoft Word** mant muharriridir.


**Microsoft Word** – Windowsning amaliy dasturlaridan hisoblanib, matqli hujjatlarni tuzish, ko‘zdan kechirish, tahrir qilish va chop etish amallarini bajaradi.

**Microsoft Word** – mant va tasviriy ma‘lumotlar ustida yuzdan ortiq amallarni bajaruvchi takomillashgan amaliy dasturlar sinfiga kiradi.

#### **Microsoft Word ni ishga tushirish va undan chiqish**

Microsoft Wordni ishga tushirish uchun Microsoft Office bo‘limiga murojaat qilishimiz kerak. Microsoft Word dasturini ishga tushirishda “sichqoncha” ko‘rsatkichini Word yorlig‘ini ustiga keltirib “sichqoncha” ning chap tugmasini ikki marta tez-tez bosiladi.

Windowsda “Пуск” tugmasi yordamida “Программы” bandiga kiriladi, MS office va Microsoft Word dasturi “sichqoncha”ning ko‘rsatkichi yordamida tanlanadi.



Ekranda birinchi bo‘lib, Microsoft Word eskizi tushirilgan oyna, so‘ngra Microsoft Word ning ish stoli hosil bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlar oyna yordamida Wordda turli hujjatlarni yaratish va ular ustida amallar bajarish mumkin.

### **Microsoft Word menyusi**

Microsoft Word menyusi quyidagi qismlardan iborat:

**Файл, Главная, Вставка, Разметка страницы, Ссылки, Рассылки, Рецензирование, Вид, Настройки.**

Bular ma ‘lum bir ma ‘noda bajarish vazifalari va buyruqlariga qarab bir-birlaridan farqlanib turadi. quyida har bir menu va ularning buyruqlari haqida tanishib o‘tamiz.

#### **Файл менюси таркibi quyidagicha:**

**Создать** – CTRL+N – yangi varoq ochish.

**Открыть** – CTRL+O – hujjatlar to‘plamini ochish.

**Закрыть** – joriy varoqni yopish.

**Сохранить** – yaratilgan hujjatni saqlash.

**Сохранить как** – yaratilgan hujjatni xohlagan joyga saqlash.

**Параметры** – varoqni o‘lchamlarini tartiblash.

**Сведения** – hujjat haqida ma ‘lumotlar.

**Последние** – oxirgi hujjatlar.


**Печать** – yaratilgan hujjatni chop etish.

**Сохранить и отправить** – saqlash va jo‘natish.

**Выход** – Word dasturidan chiqish.

## Microsoft Wordda hujjatlar bilan ishlash

Microsoft Word da yangi hujjatni yaratish uchun **Файл** menyusidan **Создать** (**□**) komandasini tanlash lozim. So'ng ekranda



yangi varoq ochiladi. Yangi varoqqa kerakli ma 'lumotlarni yozish va ular ustida turli **amallar** bajarish mumkin. Yaratilgan hujjatni ma 'lim bir nom **asosida** saqlab (**Сохранить** **□**) qo'yish lozim. Yaratilgan hujjatni o'lchamlari **Разметка страницы** menyusi orqali amalgam oshiriladi.

Sahifa hoshiyalarini o'rnatish uchun **Поля** vkladishi ishlataladi, uning oynalarida quydagilarni o'rnatish mumkin:

**Верхнее**—sahifaning yuqori hoshiyasi;

**Нижнее**—sahifaning paski hoshiyasi;

**Левое**—sahifaning chap hoshiyasi;

**Правое**—sahifaning o'ng hoshiyasi;

**Образец** ramkasida tanlangan parametrlarga ega sahifaning tashqi ko'rinishi ko'rsatilgan. agar sahifa oynali maydonlarga ega bo'lishi lozim bo'lsa

**Зеркальные поля** ga belgi qo'yish lozim. So'ng **Правое** и **Левое** maydonlari o'rniغا **Внутри** и **Снаружи** maydonlari paydo bo'ladi.

**Ориентация** – ramkasida sahifa yonalishi tanlanadi, **книжная** sahifaning vertical yo'nalishini anglatadi, **альбомная** esa gorizontal yo'nalishini.

**Переплёт** maydonnida tikish hoshiyasi kengligi belgilanadi. Ot kraya do kolontitula ramkasida quydagi masofalar belgilanadi:

**Верхнего** – sahifaning yuqori chetidan yuqori kolontitulgacha;


**Нижнего** - sahifaning paski chetidan paski kolontitulgacha.

**Применить** maydonida kerakli qiymatni tanlash yo'li bilan tanlangan parametrlar hujjatning qaysi qismiga tegishli ekanini ko'rsatib o'tish lozim:

**Ко всему документу** – o'lchovlar butun hujjatda qo'llaniladi:

**К концу документа** - o'Ichovlar kursordan pastda joylashgan hujjat qismi uchun qo'llaniladi.

Microsoft Word avtomatik tarzda matnni sahifalarga bo'ladi. qo'shimcha sahifa uzilishini kiritish uchun yangi sahifa boshlanishi lozim bo'lgan joyga kursorni o'rnatish va menyular qatoridagi **Вставка** menusidan **Разрыв** komandasini ishga tushirish lozim.



**Разрыв** muloqot oynasida **новую страницу** qarshisiga belgi qo'yish va **OK** boshish lozim. Hujjat turli o'Ichovlarga ega sahifalardan tuzilish kerak bo'lsa, unda **Разрыв** ning bir necha bo'limlarga ajratish zarur.

**со следующей страницы** – yangi bo'lim keyingi sahifadan boshlanadi;

**на текущей страницы** – yangi bo'lim bevosita joriy bo'limdan keyin boshlanadi;


**с четной страницы** – yangi bo'lim just raqamga ega eng yaqin sahifadan boshlanadi;

**с нечетной страницы** – yangi bo'lim toq raqamga ega eng yaqin sahifadan boshlanadi;

Sahifa o'Ichamlarini o'zgartirish uchun **Формат** menusida **Шрифт** komandasini ishga tushiriladi, so'gra **Шрифт** muloqot oynasi chiqadi.

**Шрифт** – maydonida shrift turi tanlanadi. **Начертание** maydonida shrift yozilishi tanlanadi: **Обычный** – oddiy yozilish shakli;

**Курсив** – *kursiv* yozilish shakli: **Полужирный** –



qalin yozilish shakli:

**Полужирный Курсив –qalin kursiv yozilish shakli:**

Размер maydonida – punktlarda ifodalangan shrift kattaligi; Подчеркивание –maydonida –ostiga chizish chizig'I turi: Цвет maydonida – belgilar rangi. Видеоизменение ramkasida buyruqlar to'g'risiga belgi qo'yish mumkin:

**Зачеркнутые** – matnni bir chiziq bilan ustidan chizish.

**Двойное зачеркнутые** –matnni qo'shaloq chiziq bilan chizish: **верхний индекс** – belgilar kattaligi kichrayadi, matn yoqoriroqda joylashadi: **нижний** – belgilar kattaligi kichrayadi, matn pastroqda joylashadi: **с тенью** – belgilar yonida soya paydo bo'ladi: **контур** – kontur faqat belgilarning konturi ko'rsatiladi: **приподнятый** – belgilar varoq yuzasi ustidan ko'rsatilgan tarzda tasvirlanadi: **уплотненный** – belgilar varoq yuzasiga cho'kka tarzda tasvirlanadi: **малые прописные** – kichik harflar bosh harfga aylanadi: **скрытые** – matnni chop etilmaydigan qiladi.

**Образец** maydonida tanlangan parametrlerga ega matn bo'lagi ko'rsatilgan.


Hujjatda belgilar holatini o'zgartirish uchun **Шрифт** mulotoq oynasining **Интервал** bo'limi orqali amallga oshiriladi.

Sahifalar raqamlarini kitish uchun **Вставка** menyusidam **Номер страницы** komandasini ishga tushiriladi, so'ng **quyidagi** muloqot oynasi ekranga chiqadi.

**Вверху страницы, Внизу страницы** maydonida varoqqa nomerni yuqor yoki qiyiga joylashtiriladi.

Hujjatga rasm joylashtirish uchun **Вставка** menyusidagi **Рисунок** buyrug'i orqali amalgam oshiriladi.


**Картинки** – hujjatga ramkali rasmlarni qoyish. **Из файла** – hujjatga faylli rasmlarni qoyish. **Со сканера или камеры**– skaner yoki kamera orqali rasm joylashtirish. **Организация диаграмма** – mukammal diagramma qo'yish.



**Создать рисунок** – rasm chizish. **Фигуры** – turli shakllar tanlash. **SmartArt** – Harflarni turli shaklga keltirish. **Диаграмма** – diagramma tanlash.

Microsoft Word matn muharrida hujjatni to‘liq tayyorlangan yoki ma ‘lum bir matnni tayyor holga keltirilgandan so‘ng matnni kompyutering xotirasiga joylashtirish kerak. Agar u kerak bo‘lib qolsa matnni qaerga va qaysi katalogga joylashtirilgan bo‘lsa o‘sha erdan qidiriladi.

Tayyorlangan hujjatni saqlash uchun **Файл** menyusidagi **сохранить** buyrug‘ini yoki belgisini tanlash lozim. So‘ngra ekranga **сохранить** muloqot oynasi ishga tushadi. Quyida **сохранить** muloqot oynasi ko‘rsatilgan.



- kataloglar ro‘yhati:

**Имя файла** – fayl nomi:

**Тип файла** – fayl turi, yani qaysi dasturga tegishliligi:

**Сохранить** – faylni kerakli katalog yoki ma ‘lum bir joyga saqlash:

**Отмена** – faylni saqlashni bekor qilish:

Microsoft Word matn muharrida hujjatni har tomonlama to‘liq shaklga keltirilgandan so‘ng matnni chop etish kerak. Hujjatni chop etish uchun **Файл** menyusidan **Печать** buyrug‘i yoki belgisi ishga tushiriladi. Natijada tayyorlangan hujjat oq qog‘ozga chop etiladi.

## Microsoft Wordda jadvallar bilan ishlash

Microsoft Word matn muharrida jadvallar bilan ishlash uchun menyular qatoridan **Вставка** menyusi tanlanadi. **Вставка** menyusi buyruqlari qatoridan **таблица**, **Вставить** yoki belgisi orqali jadval kiritish mumkin.

**Нарисовать таблицу** muloqot oynasi.

**Таблицы и границы** jadvallar va ularning chegaralari chiziladi. ushbu muloqot oynasining har bir belgilari yordamida jadvalla ustida turli amalar bajariladi.

**Таблица** menyusi buyruqlari qatoridan **Вставить** buyrug'i orqali jadvalning qatorlari, ustunlari hamda jadvallar turlari tanlanadi. **Вставить** buyrug'ining muloqot oynasi quyida keltirib o'tilgan.

**Размер** tablitsy bo'limida tayyorlanadigan jadvalning qatori va ustunlari soni tanlanadi. **Число столбцов** – ustun soni:

**Число строк** – qator soni:

**Автоподбор ширины столбцов** – ustun kattaliklarini tanlash.

**Автоформат** – jadvallar turlari tanlanadi.

Ushbu buyruqlar orqali tayyorlangan jadvallarga kerakli ma'lumotlarni kiritish va ular ustida turli amallar bajarish imkoniyatini beradi.

1-jadval.

Saqlashda sabzavot va mevalaming tabiiy kamayish o'lchamlari,  
foiz

Sabzavot va mevalar	Ombor turi	Oylar											
		sentyab	oktyabr	noyabr	dekabr	yanvar	fevral	mart	aprel	mai	iyun	iyul	avgust
Kartoshka	Sovutilmaydigan doimiy	0,2	1,9	0,7	0	0,5	0,9	1,0	1,4	1	2	-	-
Kartoshka	Uyumlar va xandaqlar	-	1,0	1,0	0	0,4	0,4	0,7	1,0	1	-	-	-

Sabzi, sholg'om, petrushka, selderey	Tabiiy sovutiladigan omborlar, xandaqlar, qum											Tabiiy kamayish hisoblanmaydi
Oqkaram, savoy qizil karami:  a) o'rtapishar b) kechpishar	Tabiiy sovutiladigan omborlar, xandaqlar va uyum		4 ,	4, 0	2 ,	3 ,	3 ,	2, 8	2 ,	2 ,	-	-
Piyoz	-II-	2,0	2 ,	1, 5	1 ,	0 ,	0 ,	0 7	1 ,	1 5	2 9	3, 0
Sarimsoq	-II-	3,5	2 ,	1, 5	1 ,	1 ,	1 ,	2, 0	2 ,	2 5	-	-
Oshqovoq	-II-	1,5	1 ,	0, 7	0 ,	0 ,	0 ,	-	-	-	-	-
Olma: a) kuzgi b) qishki	-II-	2,5 2,4	2 ,	1, 8	1 ,	1 ,	1 ,	- 0	-	-	-	-
		1 ,	2 8	1 4	5 0	0 6	0 2					

### Amaliy topshiriqlar.

(Namunaviy matn.)

**1-vazifa.** 1. Tabiiy shamollatilgan doimiy omborda 1-yanvarga kelib 1630 tonna kartoshka bor edi. 11-yanvargacha 620 tonna mahsulot chiqarib yuborildi. 21-yanvarga kelib qo'shimcha yana 380 tonna chiqarilgan. Yanvar oyida kartoshkanihg tabiiy kamayishini hisoblang. 2. Doimiy tabiiy shamollatiladigan omborda 1-aprelga kelib, 420 tonna mahsulot sotishga chiqarilgan va 20-aprelga kelib, yana qo'shimcha 3401 tonna sotuvga chiqarilgan.

Aprel oyida tabiiy kamayish qancha? Ishlash tartibi. Tabiiy kamayishning hajmi butun oy davomida saqlanadigan mahsulotning o'rtacha miqdoridan hisoblanadi va quyidagicha jamlanib aniqlanadi: 1. Oyning birinchi kunidagi mahsulotning 1/2 og'irligi. 2. Oyning 11 kunidagi mahsulotaing og'irligi. 3. Oyning 21 kunidagi mahsulotning og'irligi. 4. Keyingi oyning birinchi sanasidagi mahsulotning 1/2 og'irligini ham qo'shib 3 ga bo'linadi. O'rtacha topilgan og'irlikdan oylik kamayish foizga asosan mahsulotni tabiiy kamayishi topiladi. Sabzavot va mevalarni saqlashda ularning tabiiy kamayishi o'rtacha me'yorlari 1-jadvalda keltirilgan. Masalan. Omborda 1 mayga kelib 300 tonna kartoshka bor edi. 11 mayda 200 tonna, 21 mayda 100 tonna, 1 iyunga kelib 0 tonna mahsulot qoldi, may oyi bo'yicha kartoshkani o'rtacha og'irligi quyidagiga teng:  $(300-5-2) + 20 + 100 + 0 = 450$  150  $\wedge$  3 3 May oyida tabiiy kamayish foizi 1,1% bo'gani uchun 150 t :  $100 \times 1,1 = 1,65$  tonna

**2-vazifa.** 1. Tabiiy shamollatiladigan omborda saqlanayotgan olmaning qishki navlarining may oyidagi tabiiy kamayishini hisoblang: 1 mayda 800 t olma bo'lgan, 10 mayga kelib 290 t sotuvga chiqarilgan va 21 mayga kelib yana 385 t sotilgan. Ushbu olmalarning sovutiladigan ombordagi tabiiy kamayishini ham hisoblang. 2. Doimiy omborda saqlanayotgan nokning tabiiy kamayishini hisoblang: a) Tabiiy shamollatiladigan; b) Sovutgichlarda. Bunda omborda 1-dekabrda 150 tonna nok bo'lgan, 10 dekabrgacha 65 tonna sotuvga chiqarilgan, 21-dekabrga kelib esa qo'shimcha yana 42 tonna chiqarilgan. Tabiiy kamayishi qancha? Tabiiy kamayish olchamlari barcha mahsulotlar uchun hisoblanadi. Agar omborda mahsulot chirish, mog'orlash, kemiruvchilar, qushlar va hashoratlар tomonidan yejilishi va boshqa sabablarga ko'ra kamaysa, u tabiiy kamayishiga kiritilmaydi. Ta'kidlash joizki, tabiiy kamayish oichamlari yuqorida 1-jadvalda ko'rinish turganidek, saqlash sharoitlariga yuqori darajada bog'liqdir. Omborda saqlash tartiblari, ya'ni sovutish va shamollatish tizimlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, tabiiy kamayish olchamlari ham shunchalik kam bo'ladi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlarda, shu jumladan mamlakatimizda ham bunday tizimlar bilan zamonaviy tipda jihozlangan omborlar ko'plab tashkil qilinmoqda. Bunday

omborlarda mahsulotlar juda yaxshi saqlanadi va yilning istalgan masumida iste'molga mahsulot chiqarish imkoniyatlariga ega

### 1 topshiriq

Word matn muharririni ishga tushiring va namunaviy matnni yozib, kompyuter xotirasiga saqlang.


*Bajarish:*

1. Пуск – Все программы - Microsoft Word
2. Matn terish
3. Menyudan «Файл» - «Сохранить как» - Fayl nomi - Сохранить
4. Menyudan «Файл» - "Выход" bandini tanlang yoki sarlavhalar qatorining o'ng tomonida joylashgan «x» tugmasini bosish orqali matn muxarririni ishini tugating.

### 2 topshiriq.

Xotirada saqlagan faylingizni yana ekranga chaqiring va uni tahrirlang. (Tahrirlash deganda matnni shriftlarini o'zgartirish, hoshiyalarini to'grilash tushiniladi) *Bajarish:*

1. Пуск – Все программы - Microsoft Word
2. "Файл" -"Открыт" -Fayl nomi - Открыт
3. Matn kursorini sarlavxaning birinchi simvoli oldiga olib kelib Sichqonchaning chap tugmasini bosib turgan xolda sarlavxaning oxirgi simvoligacha tortiladi va qo'yib yuboriladi. Bunda matn qopa rangga buyaladi ya 'ni belgilanadi.



1 - Rasm. Tahrirlash uskunalar paneli

1-shriftlar o'lchamu, 2-жирный shrift, 3 -matning ikki tomonini tekuslash tugmasi

4. Sichqoncha kursorini asboblar panelining «Ж» tugmachaiga olib kelib chap tugmasi bir marta bosiladi.
5. Sichqoncha kursorini varaqning belgilanmagan yeriga olib kelib yana bir marta bosiladi (bunda belgilash bekor qilinadi)

6. Правка – Выделить все . (Butun matn belgilanadi)
7. Asboblar panelidagi ikki tomonni tekislash tugmasini bosing.
8. Menyudan «Файл» - Выход bandini tanlang yoki sarlavhalar qatorining o'ng tomonida joylashgan «x» tugmasini bosish orqali matn muharririda ishni tugating .

### 3 topshiriq.

Yangi vapaqqa bir qatop yozuv yozing. Keyingi qatorlarga uning nusxasini ko'chirib shriftlar rangini va ularning o'lchamlarini o'zgartiring.

*Bajarish:*

1. Пуск – Все программы - Microsoft Word

2. Matn terish

Z. Matnni belgilash

4. Matndan nusxa olish. Buning bir nechta usuli bor:

- a) Menyudan "Правка"- "Копировать" yoki
- b) «Стандарт» asboblar panelidan ikkita qog'oz rasmi tugmachani sichqonchaning chap tugmasi bilan bir marta bosish orqali(2 rasmdagi 1raqamli tugma)



2-Rasm. Стандарт asboblar paneli.

1-Nusxa olish tugmasi, 2-oligan nusxani qog'ozga qo'yish tugmasi

5. Matn kursorini yangi abzatsga keltirish. Buning uchun ← tugmasini yoki Enter tugmasini bosish kerak.
6. Matnning nusxasini qo'yish. Buning ham bir nechta usuli bor
  - a) menyudan "Правка" - "Вставить" yoki
  - b) "Стандарт" asboblar panelidan papka va qog'oz rasmi tugmachani bosish bilan amalga oshiriladi. (2-rasm 2-raqamli tugma). Bu tugmani 3 marta bosing.

### 4 topshiriq.


Yozgan fayllaringizni yumshoq diskka ko'chiring. (Ayni vaqtida Word matn muharriri yopilgan bo'lishi kerak.)

*Bajarish:*

1. Yumshoq diskni protsessorga joylashtiring

- Ishchi stolidagi «Мои документы» папкасини sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosish orqali oching.
- Kerakli faylni sichqonchaning chap tugmasini bir marta bosish yo‘li bilan belgilang.
- Sichqonchaning o‘ng tugmasini bir marta bosing va ochilgan menyudan «Отправить» bandini tanlang va yana ochilgan menyudan «диск 3,5» bandini tanlab Sichqonchaning chap tugmasini bosing.

**“MS Word va Word Padding o‘xshash tomonlari” mavzusidagi Venn-diagrammasi**



## 2.2-§.MS Excel dasturida sohaga oid sonli ma ‘lumotlar bilan ishlash.

### Topshiriq:

Bu topshiriqnini bir necha ketma-ket mantiqiy bo‘laklarga bo‘lamiz.

- jadvalni hosil qilish;
- jadvalni to‘ldirish;
- ma ‘lumotlarni biror belgisi bo‘yicha saralash.

### Jadvalni tuzish


"Keys-stadi" - inglizcha so'z bo'lib, ("case" – aniq vaziyat, hodisa, "stadi" – o'rghanmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqealardan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima- natija (What).

## GLOSSARIY

O'zbekcha

<b>Atama</b>	<b>O'zbekcha izoh</b>
Avtomatlashtirilgan tizim (automated system)	inson faoliyati jarayonini avtomatlashti - rishga qaratilgan dasturiy va apparatli vositalar tizimi. Avtomatlashtirilgan tizim har doim inson ishtirokida faoliyat ko'rsatadi va inson uning asosiy bug'iinidir.
Avtomatlashtirilgan tizimda axborotga ishllov berish (Automated data processing system)	Avtomatlashtiril - gan tizim vositalaridan foydalanim axborot ustida bajariladigan amallar (yig'ish, jamg'arish, saqlash, o'zgartirish, in'ikos etish, chiqarish va shu kabi) majmuasidir.
Apparat ta'minoti (hardware)	hisoblash tizimi tarkibiga kiruvchi, uning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan jami apparat vositalari. Apparat ta'minotiga komp'yuter, tashqi qurilmalar, aloqa tarmoqlari va boshqalar kiradi. Ular texnik nuqtai - nazardan tizimning samarali ishini, uning foydalanuvchiga ma'lum xizmat turlarini ko'rsatishni ta'minlaydi. Ushbu atama hisoblash tizimining dasturiy ta'minot bo'limgan qismini bildiradi.
Animatsiya (animation)	dinamik va ovozli jarayonlarni ifodalashga imkoniyat beradigan grafik axborotlarni tashkil etish usuli.
Algoritm (algorithm)	qatliy aniq qoidalar asosida bajariluvchi xarakatlar to'plami.
Algoritmlashtirish (algoritmizatsiya)	qo'yilgan masalani echish uchun algoritm tuzish.
Axborot Informatsiya (information)	1) manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'grisidagi ma'lumotlardir. 2) insomning sezgi organlari orqali qabul qilinadigan barcha ma'lumotlar majmui
Axborot turlari (types of information)	texnik axborotlar; agrobiologik axborotlar; siyosiy axborotlar; huquqiy axborotlar; iqtisodiy axborotlar.
Axborot resurslari (information resources)	alohiba hujjatlar, hujjatlarning alohiba to'plamlari, axborot tizimidagi (kutubxonalar, arxivlardagi, jamgarmalardagi, fondlardagi, ma'lumotlar banklaridagi va boshqalar) hujjatlar va hujjatlarning butun bir majmuidir.
Axborot resurslarining egasi (Information resources owner)	qonun bilan yoki axborot resurslarining mulkdori tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborot resurslariga egalik qiluvchi, ulardan foydalanuvchi va ularni tasarruf etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs (qonun).
Axborot tizimi (information system)	axborotlarni yig'ish, saqlash, izlash, ishslash va ularidan foydalanish imkonini beruvchi axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining tashkiliy tartibga solingan yig'indisi.
Axborot mahsulotlari (information	foydalanuvchilarining ehtiyojlariغا muvofiq tayyorlangan va foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljalangan yoki qo'llaniladigan hujjatlashtirilgan axborot.

<b>material)</b>	
<b>Axborot xizmatlari (information services)</b>	foydalananuvchilarni axborot mahsulotlari bilan ta'minlovchi sub'ektlar (mulkdorlar va mulk egalari)ning harakatlari.
<b>Axborot resurslari yoki axborot tizimlari egasi (Information resources or information systems)</b>	axborot resurslari yoki axborot tizimlariga egalik qilishni, ulardan foydalanishni va ularni tasarruf etishni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.
<b>Axborot jarayonlari (information processes)</b>	axborot tayyorlash, to'plash, qayta ishlash, jamg'arish, saqlash, qidirish, tarqatish va foydalanish jarayonlari.
<b>Axborot ayrboshlash (exchange of information)</b>	axborot mahsulotlarini uzatish va ularni olish, shuningdek, axborot xizmatlari ko'rsatish.
<b>Axborot ayrboshlash vositalari (Information exchange tools)</b>	axborot ayrboshlashda foydalaniladigan axborot tizimlari va aloqa tarmoqlari.
<b>Axborot sohasi (muhit) (information industry)</b>	sub'ektlarning axborot tayyorlash, qayta ishlash va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sohasi.
<b>Axborot xavfsizligi (information security)</b>	axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganligi holati.
<b>Axborot ta'minoti (information Support)</b>	tashkilotda aylanib yuruvchi axborotlarni tashkil etish shakli, joylashtirilish hajmi bo'yicha loyiha qarorlarining, shuningdek, ma'lumotlar bazasi tuzilish uslubining majmuidir.
<b>Axborot tizimlari (information systems)</b>	1) axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari; 2) boshqarish funksiyasini amalga oshirish uchun xodimlarni turli xil axborot bilan ta'minlovchi ob'ekt haqidagi axborotni yig'ish, uzatish va qayta ishlash bo'yicha ma'lumotlar va kommunikatsiyaviy tizimni o'zida namoyon etadi; 3) qo'yilgan maqsadga erishish uchun axborotni saqlash, unga ishlov berish va uni uzatish maqsadida foydalaniladigan, qo'llaniladigan vositalar, usullar va xodimlarning o'zarbo'langan majmuasi tushuniladi.
<b>Axborot faoliyati (information activities)</b>	bu milliy iqtisod sohasi bo'lib, axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish va qayta ishlab iste'molchilarining bu boradagi talabini qondirish bilan shugullanayotgan

	tadbirkorlikning bir shaklidir.
Axborot xususiyatlari (information features)	uzluksiz hosil bo'lish; xarf raqamlarda ifodalinish; diskret xarakterdaligi; yig'ish, uzatish, qayta ishlash va boshqa amallarni bajarish mumkinligi.
Axborot egasi (the owner of the information)	1) axborot uzatishni va tarqatishni, yaratilgan axborotni iste'molchiga etkazib berishni ta'minlaydigan shaxs huquqlarni qo'liga kiritgan shaxs yoki shaxslar; 2) qonun va/yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga ega bo'lgan va undan foydalananotgan hamda foydalish vakolatlarini amalga oshirayotgan sub'ekt.
Axborotlashtirish (Information)	1) yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy- iqtisodiy va ilmiy- texnikaviy jarayoni(qonun); 2) AKTdan foydalishiga asoslangan ishlab chiqarish, bilim va axborotni tarqatishning jadallashtirish jarayoni;
Axborotning himoyasi (protection of information)	boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitliligi, ishonchliligi, foydalish osonligi va mahsyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonidir.
Algoritmik til (Algorithmic language)	belgililar to'plami va bu belgilardan algoritmlarni yozish uchun mo'ljallangan til konstruksiyalarini to'zish va ifodalash qoidalari sistemasidir, qisqa qilib aytganda dasturlashtirish tilidir.
Dasturlashtirish (programming)	dasturlarni tuzish usullari va yo'llarini o'rgatuvchi fandir. Dasturlashtirish ijodiy ishdir, chunki, katta, aniq ifodalangan maqsadga erishish usullarini qidirish umumiy holda yangi ilmi yaratish yoki jaib qilishni talab qiladi
Bilimlar ombori (The base of knowledge)	biror predmet sohasiga oid bo'lib, o'zida ob'ektlarning hossalari, jarayon va hodisalarining qonuniyatları haqida ma'lumotlarga va so'ralgan vaziyatlarda ushbu ma'lumotlarni qarorlar qabul qilish uchun foydalish qoidalariiga ega bo'lgan holda tashkil etilgan bilimlar yig'indisi.
Boshqaruv (management)	bu: 1) insonning turli ob'ektlarga va atrof muhitda kechayotgan jarayonlarga ongli ravishda ta'sir etishidir; 2) anglab etilgan jarayon, ya'ni boshqaruvchi shaxs o'zi foydalananadigan boshqaruvchi ta'sirning turlarini oldindan o'ylab olgan, mo'ljallagan va tushunib etgan; 3) boshqaruv qanday ta'sir etish emas, balki ob'ektga kuchsiz energetik, ko'pgina axborot orqali ta'sir qilishdir.
Boshqaruv tizimi (management system)	boshqaruv vazifasini amalga oshiruvchi tizim. Bu tizim tomonidan amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar bashoratlash, rejorashtirish, hisobga olish, tahlil qilish, nazorat

		etish va tartibga solishdan iborat.
Boshqarish (management)		deb ob'ektning asosiy xossalari saqlab qolish yoki ma'lum bir maqsadga erishish uchun uni rivojlantiruvchi tizimning funksiyasiga aytildi.
Boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Automated information management system)		tashkilotning maqsadidan kelib chiqadigan talablarga muvofiq axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, taqsimlash, taqdim etish uchun mo'ljallangan standart protseduralar, xodimlar, dasturiy vositalar, asbob-uskunalar, ma'lumotlarning o'zaro bog'langan majmuidir.
Brauzer (Browser)		ko'rish vositasi. Internet tarmog'ida axborotlarni ko'rishning dasturiy vositasi.
Videoanjuman (Videoconferencing)		uzoqlashtirilgan foydalanuvchi guruhlari orasida (raqamli videoyozuv yoki oqimli video ko'rinishida ma'lumotlarni almashinish) yig'ilish va munozaralar o'tkazish jarayoni.
Virtual laboratoriya (Virtual laboratory)		o'rganilayotgan haqiqiy ob'ektlarda bo'layotgan jarayonlarni imitatsiya qiladigan masofali (uzoqlashtirilgan) kirishga ega bo'lgan apparat-dasturiy majmua.
Virtual auditoriya (Virtual classrooms)		o'quv jarayonining o'qituvchisi va boshqaruvchisining maslahatini olish uchun tarmoq texnologiyasi yordamida turli geografik joylarda yashayotgan talabalarni birlashtirish.
Virtual haqiqiylik (a virtual reality)		o'rganishga mo'ljallangan murakkab jarayonlarda bo'ladigan xodisalarni audio video tizimi orqali o'quvchi tassavuridagi mavxum ko'rinishi.
Virtual sinf (Virtual classroom)		o'qitish tizimidan foydalaniib, turli xonayoki binolardagi o'kuvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan dars (mashg'ulot).
Virtual universitet (VU) (Virtual university)		odatda an'anaviy o'quv yurtining atributlari (binolari, sinflari, laboratoriyalari, yotoqxonalari va h. zo) ga ega bo'lmagan ta'lim tuzilmasi bo'lib, unda turli bo'g'inalar (dekanat, kafedra va h.zo) geografik nuqtai nazaridan ajratilgan, lekin Internet global tarmog'i yoki boshqa kompyuter tarmog'i orqali faol va unumli aloqada bo'ladilar. Bunday o'quv yurtining tuzilishi, odatda, markaziy vakolatxona, mintaqaviy va xududiyl vakolatxonalarlardan tashkil topadi.
Gipertekst (Hypertext)		murojoatlar bo'yicha o'tishni bajarish imkonini beruvchi interaktiv muxitni tasvirlovchi tushuncha.
Gipermedia (Hypermedia)		matndan tashqari multimedia imkoniyatlarini ham o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarga yo'l ko'rsatuvchi hujjalarni.
Gipermurojaat (Hyperlink)		tagiga chizilgan yoki qandaydir boshqa usulda ajratib ko'rsatilgan so'z yoki jumla bo'lib, gipermatnli tizimning boshqa blok, hujjat, gipermuhit sahifasi, gipermatnini ko'rsatish imkoniyatini beradi.
Gipermuhit (Gipermuhit)		bir-biri bilan assotsiativ boglangan nisbatan katta bo'lmagan bloqlar ko'rinishidagi axborotning ixtiyoriy ko'rinishini

	<b>taqdirm etgan texnologiya.</b>
Global tarmoq (global network)	mintaqaqaviy (qit' alardagi) kompyuterlarni o'zida birlashtirish imkoniga ega bo'lgan tarmoq.
Grafik muharrir (graphics editor)	tasvirlarni taxrir qilishni ta'minlaydigan amaliy dastur.
Dasturiy ta'minot (software)	bu axborot tizimining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun dasturlar majmui, shuningdek texnik vositalalar kompleksining me'yorida ishlab turishi demakdir yoki qisqacha kompyuterda o'matilgan dasturlarning majmuisidir.
Dasturiy ta'minot tarkibiga (The software includes)	umumiyliz tizimli, amaliy, dasturiy vositalar kiradi.
Dasturiy interfeys (The software interface)	bu hisoblash tizimi doirasida qurilma va dasturlar o'zaro ta'sirini ta'minlovchi vositalar yig'indisidir.
Didaktik vositalar (Didactic tools)	o'quv fanini o'zlashtirish samaradorligini oshiruvchi pedagogik vositalar.
Didaktik material (Didactic material)	foydalaniqanda o'quvchilarning bilim olishini faollashtirish, o'quv vaqtini iqtisod qilishni ta'minlaydigan o'quv mashg'uloti uchun mo'ljallangan qo'llanmalarining maxsus ko'rinishi.
Didaktik tamoyillar (Didactic principles)	natijaviylikni ta'minlaydigan ta'lim jarayoniga quyilgan eng umumiyliz talablar tizimi.
Dizayn (design)	o'quv materialini ifodalash (tavsiflash, namoyish) usuli. Differensiallashgan ta'lim - o'quvchilarning moyilliigi, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan xolda o'quv faoliyatni tashkil etish shakli.
Domen (domain)	Internetdagi resursning qaysi davlat yoki sohaga tegishlilikini bildiruvchi belgi
Jarayon (process)	oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatlarning muayyan yig'indisi, jamlanmasidir.
Iste'molchi uchun biznes (Consumer Business)	1) axborot makonida iqtisodiy faoliyat sohasi. Bu soha yakuniy foydalauvchi talablarini qondirishga va uzroq muddatga mo'ljallangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan; 2) biznes olib borishning elektron modeli. Unda yakuniy mahsulot iste'molchisi bilan ishlab chiqaruvchi orasida kelishuvlar elektron ko'rinishda bajariladi. V2 sektoriga, Internet orqali bevosita iste'molchilar va boshqalar bilan savdo qiluvchi elektron do'konlar, tashkilotlar kiradi.
Ishchi guruhi (The Working group)	Umumiyliz resurslarga ega bo'lib, ulardan foydalauvchilar to'plami. Mahalliy tarmoqlarda ishchi guruhi, foydalauvchilarning funksional majburiyatlari belgilagan vazifalar majmuini bajarish uchun tuziladi. Masalan, loyiha ishlab chiqish, elektron marketing o'tkazish. Tarmoqda bu guruhga maxsus resurslar: axborot tizimlari, amaliy dasturlar,

	qurilmalar ajratiladi. SHunga mos tarzda, ishchi guruhining resurslari qolgan tarmoq foydalanuvchilaridan mantiqiy yakkalab qo'yiladi. Guruh ixtiyoridaga axborotdan erkin foydalanish huquqi faqat guruh a'zolarigagina tegishli. Ishchi guruhining faoliyatida elektron pochta va videokonferensiylar muhim rol' egallaydi. Ishchi guruhni g'oyasi taraqqiyoti virtual tarmoqlar yaratilishiga olib keldi.
Iqtisodiy axborot bu (Economic data this)	1) ishlab chiqarish jarayonlarini moddiy resurslar, bozorlar, bank va moliya muassasalarini faoliyati bilan to'g'ridan- to'g'ri bog'laydigan axborotlardir; 2) xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy va moliyaviy faoliyatlarini ifodalovchi ma'lumotlar to'plamiga aytildi.
Intellektual tizim (intellectual property system)	bilimlar intellektual tizimning xotirasida saqlanib, aniq fan sohasiga tegishli ijodiy masalalarini echa oladigan texnik va dasturli tizim.
Intranet (Intranet)	Internetning ko'pgina funksional imkoniyatlariga ega bo'lgan tashkilot yoki korporatsiyaning ichki tarmog'i. Intranet Internetga ulangan bo'lishi ham mumkin.
Internet (Internet)	minglab mahalliy va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini bir butun qilib birlashtiruvchi butun dunyo kompyuter tarmog'i.
Individual (yakkama-yakka tartibda) (individual) ( face-to-face in order)	masofaviy o'qitish - telekommunikatsiya va ta'limni ta'minlash uchun zarur dasturli vositalariga ega bo'lgan masofaviy o'qitish.
Interaktiv o'zaro aloqa (Interactive communication)	elektron pochta, e'lonlar elektron dosqasi, onlayn mavzuli muxokamalar, chat, audioanjuman, videoanjuman, ma'lumotlar va fayllar bilan almashinish, umumiy tarmoq ilovasi va boshqalarni o'z ichiga olgan kompyuter bilan o'zaro aloqa qilish, «inson-mashina» muloqoti.
Interaktiv o'quv kurslari (Interactive training courses)	o'zaro muloqot asosiga qurilgan vositalardan foydalananib tuzilgan kurslar.
Internetga ulanish (connect to the Internet)	internet kanallari orqali axborot resurslaridan foydalanish (ochish, ko'rib chiqish, nusxalash, uzatish va boshqalar) imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuterning ishlash tartibi.
Ma'lumotlar bazasi (MB) ( Information database)	1) kompyuterlar yordamida qidirib topilishi va qayta ishlaniши mumkin bo'lgan tarzda tartibga solingan ma'lumotlar to'plami
Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari deb (Database management	ma'lumotlar bazasini yaratish, ishlash va ko'pchilik foydalanuvchilar tomonidan birlgilikda foydalanishni ta'minlovchi til hamda dasturlar ta'minotlari to'plamiga aytildi.

systems)	
Maxfiy axborot (confidential information)	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvosiq foydalanish cheklangan, davlat sirlariga mansub axborot mayjud bo'lgan hujjatlashtirilgan axborot;
Modem va faks-modemlar (Modem and fax-modem)	Modem-telefon tarmog'i orqali kompyuter bilan aloqa qilish imkonini beruvchi qurilmadir.
Multimedia (multimedia)	axborotni (matn, rasm, animatsiya, audio, video) tasvirlashning ko'p kanallik usuli.
Multimedia vosita (multimedia tool)	bir vaqtning o'zida xarakatlannmaydigan tasvir, videofilm, grafik qiyofadagi animatsiyalar, matn, ovoz uyg'unligida tasvirlashning interaktiv vositalari
Multimediyali darsliklar (multimedia textbooks)	multimedia muhit yordamidatasviriy materiallarni yugori tartibli dinamikasi bilan CD disklardagi darsliklar. Mazmuni, odatda, tabiiy ma'ruzalar, tasvirlangan aytib berishlar, malakali diktor tomonidan kasbiy ovoz berilganva kinematografik yig'ish qonuniyatlarini saqlagan holda birlashtirilgan bo'ladi.
Model(model)	(lotincha so'z bo'lib, model -o'chov, namuna, me'yor ma'nosini bildiradi) -keng ma'noda biror obekt yoki ob'ektlar sistemasining obrazi yoki namunasi yoki qisqacha modelllashtirishdir.
Login (Login)	tarmoqqa, Kompyuterga kirish uchun ruxsat berilgan foydalanuvchining ismi yoki taxallusi.
Tizim (interventions)	yunoncha so'z bo'lib, tashkil etuvchilardan iborat bir butunlik degan ma'nani anglatadi.
Tizimning asosiy xususiyatlari (The main features of the system)	murakkablik, bo'linishlik, yaxlitlik, elementlarning ko'p turliligi va ular tabiatining xilma-xilligi, tarkiblashtirilganligi.
Tizimli dasturiy ta'minotga (System software)	Windows OT, drayverlar, utilita va qobiq dasturlarlar kiradi.
Tizim ma'muri (The system administrator)	tashkilot yoki muassasa tizim dasturiy ta'minotining ahvoli, rivojlanishi va foydalanimishi uchun javobgar inson yoki shaxslar guruhi. Tizim ma'muri foydalanuvchilarning qayd yozuvlarini olib boradi, qayd yozuvlari siyosatini belgilaydi, operatsion tizimlarning faodiysi va ma'lumotlar muhofazasining kerakli pog'onasini ta'minlaydi. U ushbu tashkilotning tizim muxandislari, tizimli dasturlashtiruvchilar va foydalanuvchilari bilan o'zaro aloqada ishlaydi.
Xavfsizlik (security)	1) tizim yoki tarmoq axboroti muhofazasini, saqlanishi, ishonchligini va puxtaligini ta'minlash qobiliyati; 2) ob'ektning tasodifiy va ataylab qilingan tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyatidir.
Hujjat (document)	1) matn, tovush yoki tasvir shaklida axborot yozilgan, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan

	foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy ob'ekt; 2) ma'lum bir faktni yoki biror narsaga huquqni tasdiqlovchi ish qog'oz; 3) ko'rsatuvchi shaxsini aniqlovchi guvohnoma, rasmiy qog'oz; 4) ma'lum tarixiy vokealar, faktlar haqidagi yozma guvohnoma.
Xost (Host)	maxsus Kompyuter yoki ularning guruhi bo'sib, Internetga to'g'ridan-to'g'ri ulanadi. Tarmoqdagi boshqa Kompyuterlarga o'z resurslaridan foydalanish imkoniyatini beradi.
Xosting (Hosting)	mijozlarning Web-saytlarini Web-serverlarda joylashtirish va doimiy ravishda faoliyat yuritishini ta'minlash xizmati.
Egiluvchan disklar (disketalar) ( flexible disks) ( disks)	ma'lumotlarni yozish va ulardan ma'lumotlarni o'qish uchun disk yurituvchi (diskovod) qurilmasi ishlatalidi. Disk yurituvchining ikki turi mavjud: 3,5 dyumli disketaga mo'ljallangan model va 5,25 dyumli disketaga mo'ljallangan eskirgan model.
Qattiq disk (winchester AP) ( Hard drives)	kompyuter bilan ishlaganda foydalaniladigan axborotni doimiy saqlashga mo'ljallangan. Masalan, operasion tizim dasturlari, ko'p ishlataladigan dasturlar paketlari, hujjatlar taxrirlagichlari, dasturlash tillari uchun translyatorlar va boshqalar.
Kompakt disklarga yozuvchi qurilma (CDs)	Optik disk (CD-ROM) uchun disk yurituvchining ish prinsipi egiluvchan disklar uchun disk yurituvchilarning ish prinsipi o'xshashdir. CD-ROMning yuzasi lazer kallakga nisbatan o'zgarmas chiziqli tezlik bilan harakatlanadi, burchak tezlik esa kallakning radial joylashishiga qarab o'zgaradi.
Trekbol (trackball)	«ag'darilgan» sichqonchani eslatuvchi qurilmadir. Trekbolda uning korpusi emas, balki sharcha harakatga keltiriladi. Bu esa kursorni boshqarish aniligini sezilarli ravishda oshirishga imkon beradi
Skanerlar (Scanners)	kompyuterga matn, rasm, slayd, fotosurat ko'rinishidagi ifodalangan tasvirlar va boshqa grafik axborotlarni kompyuterga avtomatik ravishda kiritishga mo'ljallangan qurilmadir.
Strategik axborot tizimi (Strategic Information System)	tashkilot rivojlanishining strategik istiqbollli maaqсадларини amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi komp'yuterli axborot tizimidir.
Sayt (Website)	grafika va multimedya elementlari joylashtirilgan gipermediya hujjatlari ko'rinishidagi mantiqan butun axborot.
Server (server)	ma'lumotlarni o'zida saqlovchi, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi, tarmoqdagi printer, tashqi xotira, ma'lumotlar ombori kabi resurslardan foydalanishni boshqaruvchi kompyuter.
Plotterlar (plotters)	bu, kompyuterdan chiqarilayotgan ma'lumotlarni qog'ozda rasm yoki grafik ko'rinishda tasvirlash imkonini beruvchi qurilmadir. Odatda uni grafik yasovchi (grafopostroitel) deb

	ham atashadi.
Provayder (provider)	kompyuterlarning tarmoqqa ulanish va axborot almashishini tashkil qiladigan tashkilot.
Forum (ingl. www-conference)	saytda muloqat qilish asboblari. Forumdagi axborotlar qaysidir tomonidan pochtaga uxshaydi-ularning har bin muallif, mavzu va o'zining mazmuniga egalar. Lekin forumga ma'lumot jo'natish uchun hech qanday qushimcha dastur zarur emas-faqat saytda mos shaklni to'latish kerak.
Faks-modem (Fax-modem)	bu, faksimil xabarlarni qabul qilish va jo'natish imkonini beruvchi modemdir.
Foydalanuvchi interfeysi (The user interface)	foydalanuvchini tizim yoki tarmoq bilan o'zaro ta'sirini aniqlaydigan shakl.
Foydalanuvchilarni qayd etish (Users of)	axborot-ta'limga resurslariiga qirish huquqini olish uchun foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlarni kiritish jarayoni.
Web - hujjat (Web document)	1.Odatda, maxsus murojaat HTML (Hypertext Markup Language) tilidagi hujjat. Web - hujjat Umumjaxon tarmog'i asosini tashkil qiladi. Ular gipermatndan iborat bo'lib, foydalanuvchiga ajratib ko'rsatilgan so'z yoki jumlaga qaratib, ma'lumotlarni o'qish, hujjatning boshqa qismiga yoki ayni hujjat bilan gipermurojaat yordamida bog'langan boshqa web-hujjatga o'tish imkonini beradi. Web -hujjat, shuningdek, matn, tasvir, tovushlarni mujassamlovchi gipermuhit ma'lumotni ham o'z ichiga olishi mumkin. web -hujjatni ochish, ularni o'qish yoki aks ettirish Internet brauzerlari yordamida amalga oshiriladi. Web - hujjat tushunchasi «web-sahifalar» va «web-saytlar» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq.
Web - sayt statistikasi (Web site statistics)	saytlar egalariga saytda tashrifchilar soni, qaysi bo'limlari eng ko'p mashhur bo'lgan va boshqa narsalarni bilish imkonini beradi.
Web - sahifa nomi (webpage title) (The name of the web page)	web - sahifani aynanlashtiruvchi tavsiylovchi matn.Ochiq sahifa nomi web - brauzeri oynasining sarlavha qatorida aks ettiriladi.
Web-dastur (Web-program) (Web-application)	Web-serverlarda ayrim amallarni avtomatlashirish maqsadida qo'llaniladigan dasturiy vositalar. Dasturlar mijoz- server arxitekturasida yaratiladi. Bunday dasturlarga: ISAPI, CGI, ASP, JSP, WAPlarni kiritish mumkin.
Web-interfeys ( webpage title) ( Web-interface)	foydalanuvchiga web - brauzer orqali turli dasturlar bilan o'zaro ishlash imkonini beruvchi interfeys (masalan, o'z buyurtmasini boshqarish Internet do'konida yoki tarmoq printerini sozlash). Web - interfeyslarining qulayligi shundaki, ular bitta osida joylashmagan xodimlarga birgalikda ish yuritish imkonini beradi. Masalan, web - interfeyslar turli ma'lumotlar bazalarini to'ldirish yoki Internet OAV da

	materiallarni chop etish uchun ishlataladi.
Web-server ( Web-server)	www doirasida faoliyat ko'rsatuvchi server. Web-sahifalarni saqlaydi hamda tashqi serverlardan kelayotgan so'rovlariga javob beradi.
URL (Uniform Reso urce Locator)	fayl saqlangan server nomi va serverdagi fayl nomini bildiruvchi tarmoq zvenosi adresi formati
CHat (ingl. to chat — vaysash)	gap haqiqiy vaqtida olib boriladigan Internetdagi muloqat.
On-line mashg'ulot (On-line training)	barcha qatnashuvchi (talabalar va o'qituvchi)lar Internet orqali axborot almashinish yo'li bilan o'zaro aloqa qiladigan o'quv mashg'ulot ko'rinishi. U o'z ichigaonlaysun muhokama (forumlar, chatlarva elektron pochta orqali), shaxsiy va guruhiy vazifalar bajarish, ma'ruzalar tayyorlash va testlar topshirishlarni oladi.
On-line o'qish (On-line reading)	Internet texnologiyalariga asoslangan ta'limgah muhitidan foydalanib o'quv materialalarini mustaqil o'rganish va sertifikat olishjarayonini tashkil etish usuli.
Off-line (Offlayn, Off-line)	tarmoqqa ulanmagan (avtonom) holatda ishlash tartibi.
Ochiq ta'limgah (public education)	asosini o'qitishning virtual muhiti (O'VM) tashkil etib, o'quvchilarga maqsadli yo'naltirilgan, nazoratlari, jadal, unga o'qish ma'qul erda va qabul qilish darajasida, o'zining turar joyida mustaqil ijodiy ishini ta'minlaydiganum bo'yи o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan masofali ta'limgahning rivojlanganshakli.
Ochiq ta'limgah tamoyillari (The principles of public education)	tanlovsiz o'qishga kirish, o'qish joyi, darajasi va yo'lini tanlash erkinligini, umr bo'yи ta'limgah, o'quvchiga bilimlarni etkazish, shaxsnинг ijodiy salohiyatini rivojlantirishlarnita'minlaydigan imkoniyatlar.
Ochiq ta'limgah tizimi (OTT)( Public education system)	ochiq ta'limgahning jarayoni va tamoyillarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan ochiq tizim bo'lib, boshqa murakkabroq tizimning komponentasi sifatida qatnashishi mumkin va bu o'z navbatida boshqa darajadagi tizimning komponentasi bo'lishi mumkin.
Ochiq tizim (open system)	yangi texnologiyani doimiy adaptatsiya qilishga yo'naltirilgan va foydalanuvchiga: kengayuvchanlik, mobillilik, interoperabellik, do'stonalikni ta'minlash uchun etarli bo'lgan ochiq, jarayon tomonidan qo'llab quvvatlanadigan interfeyslar, xizmatlar va ma'lumotlar formatlariga umumkirish imkoniyatiga ega bo'lgan xususiyatlari tizim.
Pedagogik axborot texnologiyalari (The teaching of information technology)	kompyuter va tarmoq texnologiyasi va didaktik vositalarni foydalanishga asoslangan ta'limgah.
Pochta qutisi	pochta serverida axborotni (xatlar, xabarlar, qo'llanmalar)

(mail box)	yozish uchun mo'ljallangan qattiq disk maydoni. Pochta qutisi egasi maxsus mijoz dasturi yordamida quti tarkibini ko'rsishi, nusxa olishi, ko'chirishi, o'chirishi mumkin. Pochta qutisiga har bir pochta qutisini boshqalardan farqlash imkonini beruvchi noyob elektron manzil beriladi.
Pochta serveri ( mail server)	foydalanuvchilarning shaxsiy xatlarini qabul qilib olish va uzatishni hamda ularni yo'naltirishni ta'minlovchi server. Pochta serverini tashkil qilish uchun shaxsiy Kompyuterga tegishli dasturiy ta'minotni o'rnatish lozim. Pochta - Internetda muloqot qilishning asosiy vositasi.
Provayder ( provider)	kompyuterlarning tarmoqqa ularish va axborot almashishini tashkil qiladigan tashkilot.
Simulyasiyalar (Simulate)	MO'T ning amaliy mashg'ulotlarda maxsus malakalarni hosil qilishqaqiy jarayonlarini modellashtirish imkoniyatini beradigan o'quv elementlari.
Elektron darslik. (e-books)	bir yoki bir necha mualliflar jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan va elektron tashuvchiga mashina formati (WORD, HTML va hokazolar)da o'rnatilgan darslik.
Elektron kutubxona (electronic library)	aniq nashrni tezlikda izlash va unga kirishga mo'ljallangan elektron tashuvchilaridagi o'quv adabiyotlarning saqlovlchisi.
Elektron pochta (E-mail)	qog'ozdan foydalanmasdan O'VM o'qituvchilari orasida matn, nutq, tasvir yoki hujjalarniuzatuvchi vosita.
Elektron o'quv qo'llamma (Electronic textbooks)	darslikni qisman yoki to'la almashtira oladigan va ushbu ko'rinishdagи nashr sifatidarasman tasdiqlangan elektron darslik.
Elektron pedagogika (e-Training)	zamonaviy AKT muhitida ta'limni tashkillashtirishga bag'ishlangan fan. Uning ob'ekti elektron ta'lim hisoblanadi, predmeti esa - zamonaviy AKT muhitida tashkillashtirilgan pedagogik tizim.
Elektron o'quv- metodik majmua (mo'mm) ( Electronic educational- methodical complex)	davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarini olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron o'quv - uslubiy manbarlar, multimediali didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta'lim resurslari, multimediali baholash metodlari va mezonlarini o'z ichiga oladi.
Elektron lug'at (electronic Dictionary)	an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'sratma bilan istalgan dasturdan chaqirilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, toyush, musiqa va boshqalar bilan birga media-ob'ektlarning butun spektrlarini o'z ichiga

	olishi mumkin.
Elektron testlar (electronic tests)	saqlangan, ishlov berilgan va baxolash uchun kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlar berilishi o'rganilgan matnni talabaning qanchalik darajada o'zlashtirganligi o'z-o'zini baholash imkonini beradi
Elektron topshiriqlar (electronic orders)	o'qituvchiga ta'lif oluvchilarining individul imkoniyatlarini hisobga olgan xolda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuuni o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar ta'lif oluvchilarga an'anaviy «qog'oz» li va elektron variantlarida tavsija etilishi mumkin.
Elektron uslubiy qo'llanma (Electronic textbooks)	pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lif faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan talabalar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi.
Elektron raqamli imzo (Electronic digital signature)	elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopik kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosilqilingan hamda elektron raqamli imzoning ochik kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yukligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopik kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.
Elektron raqamli imzoning yopik kaliti (Electronic digital signature key)	elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holdahosilqilingan, faqat imzo kuyuvchi shaxsning o'ziga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo'ljallangan belgilarni ketma-ketligi.
Elektron raqamli imzoning ochik kaliti (The public key of the electronic digital signature)	elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holdahosilqilingan, elektron raqamli imzoning yopik kalitiga mos keluvchi, axborot tizimining harqanday foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan belgilarni ketma-ketligi.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash (Verification of the authenticity of the digital signature)	elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo yopik kalitining egasiga tegishiligi va elektron hujjatdagi axborotda xatolik yukligi tekshirilgandagi ijobjiy natija.
Elektron hujjat (electronic document)	elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.X. Alimov, G.T. Yulchiyeva, O.Q. Rixsimboyev, Sh.A. Alishov. Axborot texnologiyasi va tizimlari. Darslik “Voris – nashriyot” Toshkent – 2011.
2. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalar, O’quv qo’llanma, T.: “Noshir”, 2009
3. N.X.Noraliev, Z.K.Kusharov. Qishloq xo’jaligida axborot texnologiyalar: O’quv qo’llanma. “Iqtisod-moliya”, Toshkent 2017 y.- 521 b.
4. Z.A.Zaparov. Qishloq xo’jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar: O’quv qo’llanma. Toshkent: Malik Print Co. 2022. -150 b.
5. Informatika: O’quv qo’llanma. / B.B.Mo’minov. – Toshkent Tafakkur bo’stoni 2014 y. 344 bet
6. Dasturlash texnologiyalari.Darslik/ Sh.Nazirov, G.Ivanova, S.Gaynazarov – O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent – 2014, 280 bet.
7. Informatika va axborot texnologiyalari. O’quv qo’llanma. /Z.Abdullaev, S.Mirzaev, G.Shodmonova, N.Shamsiddinov- Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent-2012, 444 bet
8. Безручко В.Т. Компьютерный практикум по курсу «Информатика»: Учебное пособие. 3-е изд., перераб.1 доп. –М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М,2008.-368 с.
9. N.X.Noraliev, N.Qilichev Informatika. O’quv qo’llanma. – T.: ToshDAU nashr taxririysi, 2003. – 147 b.
10. Информатика: Практикум по технологии работы на компьютере. / Под. ред. В. Макаровой. – 3-е изд., перераб. – М.: Ф и С, 2004. – 256 с.
11. Программирование: принципы и практика использования C++, испр. изд. : Пер. с анг. — М. : ООО “И.Д. Вилямс”, 2011. — 1248 с.
- 12.Информатика. Базовый курс: Учебник. / Под. ред. С.В. Симоновича. СПб.: Питер, 2003. 622 с
- 13.Т.Х. Xolmatov. Informatika: OO’YU talabalari uchun darslik. – Т.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2003.– 256 b.
- 14.S.S.Gulomov va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari: OO’Yu lari uchun darslik. – Toshkent.: 2010.

## Mundarija

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
1-Bob. Kompyuterlarning texnik va dasturiy ta'minoti .....	6
1.1-\$. Zamonaiviy texnik va dasturiy vositalar bilan tanishтирish .....	6
1.2-\$. Windows OTda ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish. ....	12
2-Bob. Qishloq xo'jaligida MS Officce amaliy dasturlarini tadbiqi .....	19
2.2-\$.MS Excel dasturida sohaga oid sonli ma 'lumotlar bilan ishlash .....	30
2.3-\$. MS Excel dasturida standart funksiyalar bilan ishlash. ....	33
2.4-\$. MS Power Pointda taqdimotlarni tayyorlash va namoyish qilish..	36
2.5-\$. MS Access obyektlari bilan ishlash va jadvallar hosil qilish.....	39
2.6-\$. MS Access dasturida so'rovlar hosil qilish.....	45
3-Bob.Kompyuter tarmoqlari. Internet .....	47
3.1-\$. Internet xizmatlari,axborot qidiruv tizimlari bilan ishlash.....	47
4- Bob.Bulutli texnologiyalar. ....	51
4.1-\$.Bulutli texnologiyalar. Dropdox bulutli platformasidan foydalanish....	51
4.2-\$.GoogleClassroom xizmatidan foydalanib ta'lim jarayonini boshqarish.....	55
4.3-\$.GoogleForm da anketalar yaratish va so'rovlar o'tkazish.....	58
5-Bob.Elektron hukumat.....	71
5.1-\$. Elektron hukumat tizimi imkoniyatlari, davlat interaktiv xizmatlari.....	71
6-Bob.Axborot xavfsizligi va ularni himoyalash .....	74
6.1-\$.Axborotga hujumlarni tahlillash va himoya vositalarini tashkil etish .....	74
7-Bob. Qishloq xo'jaligi masalalarida algoritmlash va dasturlash asoslari .....	81
7.1-\$.Qishloq xo'jaligi sohasiga oid turli masalalarga algoritmlar tuzish. ....	81
7.2-\$. C++ tilining operatorlari bilan tanishish va masalalar yechish.....	87
8-Bob.Qishloq xo'jaligiga geografik axborot tizimlarini qo'llash .....	97
8.1-\$. Fazoviy ma 'lumotlarni tahlil qilish. Fazoviy tahlil masalalari .....	97
8.2-\$.Agrar ofis (ARMA) dasturidan foydalanish .....	100
Fan bo'yicha ta'lim texnologiyalari va metodlari.....	101
Glossari .....	105
Foydalilanigan adabiyotlar .....	117

## O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 20 23 yil "29" Sentabr dagi "438"-sonli buyrug'iiga asosan

O.Abduraxmonov  
(muallifning familyasi, nomi-sharifi)

*Issiqxona xo'jaligini tashkif etish va yurisich, Mevachishik  
(ta'lim va mafsih multizassetligi),  
va uzumchilik, Meva-sabzavotchilikda bioteknologiya,  
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saglash va dastlabki  
ishlash texnologiyasi (mahsulotlar surʼari bo'yicha)*

ning talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan

*Qishloq xo'jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalari  
(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv go'llani)*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir



I.Abduraxmonov

Nº 438040

*Ilmiy nashr*  
**ABDURAXMONOV ODILJON**

---

**QISHLOQ XO'JALIGIDA AXBOROT-  
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR**

**O'quv qo'llanma**

*Muharrir: D.Axmedova*

*Dizayner: Z.Axmedova*

*Musahhih: B.Axmedov*

"STEP BY STEP PRINT" MChJ

Andijon shahri. Xrabek ko'chasi 94 b uy.

Nashriyot litsenziya raqami: № 040955

2022-yil 29 sentabrda berilgan.


Bosmaxonaga 2024 yil 25 iyunda berildi. Bosishga 2024 yil 03 iyulda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32. Hajmi 7.25.bosma taboq. Times New Roman garniturasi. Ofset qog'izi, offset usulida chop etildi. Buyurtma 58. Adadi 20 dona.

"Step by step print" MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Andijon shahar Xrabek ko'chasi 94-b uy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti adminitratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
12.07.2019.dagi 12-3299. Raqamlı guvohnoma.





}